



AXBOROT HUQUQI VA "YOLG'ON XABAR" ("FAKE NEWS")

MUAMMOSI: MAQSADLARI, TARQALISH SHAKLLARI VA QONUNIY

KURASH CHORALARI.

AKRAMOVA SHAXRIZODA DILSHOD QIZI

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

1-KURS TALABASI

E-mail:

shaxrizodaakramova12@gmail.com

ANNOTATSIYA

Bu maqolada, ma'lumotlar olish erkinligi va uni ta'minlash, shaxslarning ma'lumotlarni olish, saqlash, tarqatish huquqlari; ma'lumotlar erkinligi bo'yicha qonun hujjatlari; "fake news" nomi va yolg'on xabar muammolari, ulaning yuzaga chiqishi, uni tarqalish shakllari, shuningdek unga qarshi kurashish choralari haqida so'z berilgan. Tadqiqot natijalarida milliy va xorijiy olimlarning fikrlari, tegishli normativ huquqiy hujjatlarda belgilangan standartlar izohlangan va har bir muddat bo'yicha muallifning fikri bayon etilgan.

Kalit so'zlar: axborot resurslari , fake news, shaxsga doir ma'lumotlar, kiber, jinoyatchilik, yolg'on, hujjatlar.

АННОТАЦИЯ

В этой статье закреплены свобода получения информации и ее предоставления, права личности на получение, хранение, распространение информации; законодательство о свободе информации; Обсуждаются название



«фейковые новости» и проблемы фейковых новостей, их появление, формы распространения, а также меры борьбы с ними. В результатах исследования разъяснены мнения отечественных и зарубежных ученых, нормы, определенные в соответствующих нормативных правовых документах, а также изложено авторское мнение по каждому термину.

Ключевые слова: информационные ресурсы, фейковые новости, личная информация, киберпреступность, ложь, документы.

ABSTRACT

In this article, the freedom to obtain information and its provision, the rights of individuals to obtain, store, distribute information; legislation on freedom of information; The name "fake news" and the problems of fake news, its appearance, forms of its spread, as well as measures to combat it are discussed. In the results of the research, the opinions of national and foreign scientists, the standards defined in the relevant normative legal documents are explained, and the author's opinion on each term is stated.

Keywords: information resources, fake news, personal information, cyber, crime, lies, documents.

KIRISH

Axborot platformalarida "feyk" atamasi ancha faol aylanmoqda. Ba'zilar xabarning shov-shuv bo'lib, keng rezonansga sabab bo'lishi, biroz muddatdan so'ng esa uning "feyk" bo'lib chiqqani haqidagi xabarlar ham tez-tez uchrab turibdi. Shu bois feyk tushunchasini yaxshiroq tanib olish va undan himoyalanish muhimdir.

Adliya vazirligi "Mediasavodxonlik va fake news: huquq va mas'uliyat



chegarasi" mavzusida media vakillari uchun seminar tashkil etib, ommaviy axborot vositalarida feyk masalasi xususida ma'lumotlarni taqdim etdi.

"Feyk" (inglizcha) soxta, qalbaki degan ma'nolarni anglatadi. Haqiqatga juda o'xshab ketadigan yolg'on xabarlar, maxsus dasturlar orqali o'zgartirilgan fotosuratlar, montaj qilingan videoroliklar, ijtimoiy tarmoqlarda boshqa shaxslar (odatda mashhur insonlar) nomidan ochilgan yolg'on akkauntlar feyklarga misol bo'la oladi. Statistika ko'ra, 2018 yilda e'lon qilingan feyk materiallar soni 32 foizga ortgan. Bu kishilarning rasmiy axborot manbalariga bo'lgan ishonchi 32 foizga tushib ketganini anglatadi. Feyk xabarlarining sariq matbuot va siyosiy propaganda bilan umumiy jihatlari ko'p. Lekin feykni badiiy to'qimalar va mish-mishlardan farqlay olish lozim. Sariq matbuotdagi mish-mishlar asosan ommaning vaqtini chog' qilish, u yoki bu shaxsga e'tibor tortish uchun tarqatiladi va uning ijtimoiy zarari uncha katta bo'lmaydi. Feyklar esa jiddiy ijtimoiy-siyosiy maqsadlarni yoki moliyaviy manfaatni ko'zlab tarqatiladigan yolg'on xabarlardir. Feyklarni tarqatishdan maqsad nima? Soxta, yolg'on ma'lumotlarni tarqatuvchilar turli manfaatlarni ko'zlagan bo'lishi mumkin. Moddiy manfaat. Soxta axborot mualliflari ko'pincha jalb qiluvchi, «qichqiruvchi» sarlavhalardan yoki to'liq to'qimalardan foydalanib, o'quvchilar auditoriyasini oshirishga, o'zlariga havolalarni ko'paytirishga harakat qilishadi. Bunda klikbeyting prinsipi orqali foyda maqsad qilinadi. Siyosiy manfaat. Auditoriyasi katta bo'lgan platformalarda soxta kontent yaratish, tahlikani chaqiruvchi ma'lumotlarni joylash orqali auditoriyani boshqarishga, tartibsizlik, vahima kayfiyatini keltirib chiqarishga urinish ham mumkin. Elektron pochtaga qiziqarli sarlavhali spam xabarlarini jo'natish holatlari ham



uchraydi. Bunda elektron pochta egasi kelgan «qiziqarli» xabarni ochishi bilanoq kompyuter yoki mobil qurilma virus bilan zararlanadi. Virus tarqatuvchilar esa shaxsiy ma'lumotlarni qo'lga kiritib, katta foyda ko'rishadi.

"Dunyoni urush domiga tortadigan narsa nima? Axborot. Avvaliga diplomatlar va siyosatchilar jurnalistlarga yolg'on ma'lumot beradilar. Keyin shu ma'lumotlarni gazetalarda o'qib, o'zlari ham ularga ishonadilar," degan edi avstriyalik olim Karl Kraus. Haqiqatni yashirish maqsadida yoki atayin shov-shuv qo'zg'atish maqsadida kimdir yolg'on gapiradi yoki haqiqatni buzib ko'rsatadi. Darhol bu axborotga nisbatan sharhlar, munosabatlar paydo bo'ladi. Axborotning to'g'riligi, haqiqatga muvofiqligini tekshirish haqida hech kim bosh qotirmaydi. Jurnalistlar axborotni imkon qadar birinchi bo'lib ommalashtirishga, odamlar esa bu axborot haqida birinchilardan bo'lib fikr bildirishga qiziqib ketishadi, axborotning haqiqiyligi masalasi bir chetda qoladi. Bu orada axborotni tarqatgan manbalar tartibsizlik kayfiyatini keltirib chiqarishga yoxud omma e'tiborini "aytilishi kerak bo'lmagan", sir tutiladigan axborotdan chalg'itishga erishgan bo'ladi.

Global social media research summary — 2018 tadqiqot natijalariga ko'ra, 2018 yilda internetdan foydalanuvchilar soni 4,041 mlrd.ga, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar soni 3,196 mlrd.ga yetgan. O'zbekistonda esa internetdan foydalanuvchilar 20 millionga, ijtimoiy tarmoqlardan bir kunda faol foydalanuvchilar 1,6 mln.ga yetgan. Bu raqamlar internet allaqachon ommaning diqqatini bir nuqtaga qarata olgan platformaga aylanganini, kontentning ishonarli yoki yo'qligi muhim ahamiyat kasb etib borayotganini ko'rsatadi. XXI asrda axborot, kundalik hayotning asosiy qismiga aylanib keldi. Axborot olish huquqi har bir shaxsning istagan axborotni izlash, olush va tarqatishini anglatadi.



Fuqarolar o'zlariga oid bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar haqida ma'lumot olish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari va mansabdor shaxslar tomonidan ta'minlanadi. Butun dunyoda, insonlar 86% dan ortiq axborotlarni mobil telefon orqali oladilar. O'zbekiston Respublikasida kutubxonalar va hujjatxonalardan foydalanish bepuldir, fuqarolar o'zlariga zarur axborotni bevosita yoki qonuniy vakillari yordamida izlash, olish, tadqiq etish va tarqatish, hujjatlar va boshqa axborot manbalaridan nusxa, foto-tasvirlar olishga ijozat berilganligini ta'minlaydi. Bu, bugungi kunda axborot olamida "yolg'on xabar" tarqatish muammosining yuzaga kelishi mumkin. Bugungi kunda yolg'on ma'lumotlar yangilik emas, ammo 2017-yildan beri dolzarb mavzuga aylanib keldi. An'anaga ko'ra, biz yangiliklarni ishonchli manbalar, jurnalistlar va ommaviy axborot vositalaridan olamiz. Ularning amaliyot qoidalarga qat'iy amal qilishi zarur. Biroq, internet tartibga solish yoki tahrir standartlari bilan ma'lumot va yangiliklarni nashr etish, almashish va iste'mol qilishning butunlay yangi usulini ishga tushirdi. "Fake news", yangilik sifatida taqdim etilgan yolg'on ma'lumotlar hisoblanadi va bu atama birinchi marta 1890-yillarda paydo bo'ldi. Bu hozir global muammoga aylandi va har kuni dunyo bo'ylab 20% odam "soxta xabarlar" qurboniga aylanadi. Tadqiqot jarayonida uchta savolga javob qidirildi: Birinchidan, mamlakatimizda axborot olish huquqi qanday darajada ta'minlanganligi, axborot olish resurslari; ikkinchidan, "fake" xabar muammosi qanday maqsadlarda tarqalishi va uning shakllari; uchinchidan: "yolg'on xabar" tarqalishiga qarshi qanday qonuniy kurash choralari qo'llaniladi? Ushbu savollarga javob topish orqali mazkur tadqiqotda axborot olish erkinligi, "yolg'on xabar" va uning tarqalishini oldini olishga oid materiallar va ushbu masalaga oid olimlarning asarlari, ilmiy maqolalari foydalanilgan va muallifning xulosa va mulohazalari ishlab chiqildi. Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy (analiz, sintez),



qiyosiy-huquqiy, qonunni qo'llash amaliyotini tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Axborotsiz hayotimizni tasavvur etish qiyin. Kundalik hayotimizda ya axborot iste'molchisi, yoki uzatuvchisi yoki uning tarqatuvchisi hisoblanmadik. Bu o'z-o'zidan axborot almashinuvini yuzaga keltiradi. Axborot, biror voqea-hodisa haqidagi batafsil xabar, shuningdek, manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'iy nazar shaxslar, predmetlar, faktlar to'g'risidagi ma'lumotlardir. Shuningdek, inson o'z sezgi organlari orqali qabul qiladigan signal majmui ham axborot sanaladi.

Kibernetika fanining asoschilaridan biri bo'lgan N. Viner axborot haqida quyidagicha izohladi: "Axborot - bu bizning tashqi dunyoga moslashish jarayonida undan oladigan ma'lumotlarni o'zida ifoda etadigan tushunchadir." Tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi dunyoda fuqarolarning yangi sharoitlarga moslashishlariga ko'maklashish, ularga bo'layotgan voqealar, jarayonlar, hodisalar to'g'risida axborot berib borish, shuningdek, fuqarolar, ijtimoiy institutlar va davlat hokimiyati organlari o'rtasida samarali munosabatlar tizimini o'rnatishda, eng avvalo, fuqarolarning axborotdan foydalanish bilan bog'liq konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish va kafolatlash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo mamlakatlarida aholining axborot olish huquqi qanchalik ta'minlanganligini nazorat qilish vazifasi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan UNESCO zimmasiga yuklangan. Shuning uchun, 28 sentyabr - Axborotdan erkin foydalanish xalqaro kuni dastavval aynan UNESCOning 2015-yilgi rezolyusiyasi asosida e'lon qilingan bo'lsa, 2019-yilda BMT Bosh Assambleyasi uni xalqaro sanalar taqvimiga kiritgan. BMTning 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror taraqqiyot



maqsadlari tamoyillaridan kelib chiqqan holda, UNICEF keng jamoatchilikning axborotdan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi muhimligiga alohida e'tibor qaratmoqda. Axborot erkinligi bugungi zamon demokratiyasining asosiy tayanchlaridan biri hisoblanadi.

Axborot olish huquqi, har bir shaxsning umumiy axborot vositalari, gazetalar va jurnallar, tele va radio kompaniyalar orqali ma'lumotlarni qabul qilishi imkoniyatiga ega bo'lishidir. Shuningdek, axborotdan erkin foydalanish huquqi ham mavjud bo'lib, u inson tug'ilgani bilan unga beriladigan, qonun normalari bilan taqiqlanmagan har qanday axborotni olish, saqlash, tarqatish mumkin bo'lgan harakatlardir.

Bu huquq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida belgilangan. Unga ko'ra: "Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmoqidan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'ligini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi."

Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasining 19-moddasiga muvofiq, "Har bir inson e'tiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega; bu huquq hech bir to'siqsiz o'z e'tiqodiga amal qilish erkinligini hamda axborot va g'oyini har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat'i nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z



ichiga oladi". Axborot erkinligi insonning asosiy huquqi hisoblanadi. U erkinlikning Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'z himoyasiga olgan barcha turlari uchun mezon sanaladi. Bundan tashqari, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunda ham axborot resurslaridan erkin foydalanish huquqi belgilangan. Unga ko'ra, axborot resurslari ulardan erkin foydalanish toifalari bo'yiicha hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborot resurslariga va erkin foydalanilishi cheklab qo'yilgan axborot resurslariga bo'linadi. Cheklanmagan doiradagi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan axborot resurslari hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborot resurslaridir. Davlat sirlari to'g'risidagi axborotni va maxfiy axborotni yoki erkin foydalanilishi axborot resurslarining mulkdorlari tomonidan cheklab qo'yilgan axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslari erkin foydalanilishi cheklab qo'yilgan axborot resurslariga kiradi. "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonunda esa axborot erkinligi kafolatlari quyidagicha berilgan: Davlat har kimning axborotni izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqini himoya qiladi. Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyiga qarab axborot olish huquqi cheklanishiga yo'l qo'ymaydi. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari hamda mansabdor shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda har kimga o'zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan axborot bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlab berishga, maqbul axborot resurslari yaratishga, foydalanuvchilarni fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlariga, ularning xavfsizligiga doir hamda jamiyat manfaatlariga taalluqli boshqa masalalar yuzasidan axborot bilan



ommaviy tarzda ta'minlashga majburlarlar. Bu huquqning mohiyati shundan iboratki, har kim xohlagan ma'lumot yoki axborotlarni izlash, tarqatish huquqiga ega, lekin bu davlat siri yoki boshqa qonun bilan qo'riqlanadigan sirlarni tashkil etsa ma'lum bir cheklovlar mavjud. Chunonchi, sir tutiladigan fan-texnika, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, savdo-sotiq va shunga oid axborotni egasining rozilgisiz oshkor qilishi, tarqatishi yoki foydalanish maqsadida to'plash jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, shaxs bilan bog'liq ma'lumotlarni ham uning rozilgisiz olish yoki yolg'on ma'lumotlarni tarqatish qonunchilikka binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi va bu qator qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan. Xususan, Konstitutsiyaning 31-moddasi: Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunning 14-moddasi: Shaxsga doir ma'lumotlarni nomuayyan doiradagi shaxslarga oshkor etishga, shu jumladan shaxsga doir ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida hammaga ma'lum qilishga, Internet jahon axborot tarmog'iga joylashtirishga yoki shaxsga doir ma'lumotlardan biror-bir boshqa usul bilan foydalanish imkonini berishga qaratilgan harakatlar shaxsga doir ma'lumotlarni tarqatishdir. Agar bu shaxsning rozilgisiz amalga oshirilsa qonunga xilof hisoblanadi.

XULOSA

Mamlakatimizda axborot olish huquqi va erkinligi aholi uchun yetarli darajada ta'minlangan. Har kim o'zi istagan axborotni xohlagan paytda va joyda izlash imkoniga ega. Lekin yolg'on ma'lumotlar bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurash choralari qonunchilikda hali to'liq shakllanmagan, xususan "fake news" bilan bog'liq kiberjinoyatchilik rivojlanishda davom etmoqda. O'zbekiston ham "fake news"ga



qarshi kurashishda xalqaro miqyosda qo'llanilayotgan choralardan foydalanishi lozim. Bundan tashqari yolg'on xabarlariga aldanib qolmaslik uchun jamiyatni ushbu jinoyatga qarshi kurashishga jalb etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Internet va ijtimoiy medianing rivojlanishi natijasida har bir axborot iste'molchisi ayni vaqtda axborot tarqatuvchi, xalq jurnalisti rolini ham o'zlashtiradi.

Insonning bir barmoq harakati bilan kelib chiqishi shubhali xabarni minglab odamlarga yetkazishi mumkin. Shunday sharoitda har bir fuqaro o'zi bilmagan holda halokatli dezinformatsiya zanjirining bir halqasiga aylanib qolishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. file:///C:/Users/%D0%B0%D1%81%D1%80/Downloads/davlat_va_huquq_asoslari_11_uzb.pdf Toshkent. 2019-yil, 98-103-bet
2. <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m8761>
3. <https://lex.uz/docs/-83472>
4. <https://www.webwise.ie/teachers/what-is-fake-news/>
5. <https://guides.lib.umich.edu/fakenews>
6. Davlatbekov S.K. Tarixda va zamonaviy dunyoda „Fake news“ atamasi// <https://cyberleninka.ru/article/n/termin-fake-news-v-istorii-i-sovremennosti>
7. “A lesson in fake news from the info-wars of ancient Rome”. Kaminska, Izabella (January 17, 2017). Financial Times. Retrieved July 4, 2017.
8. Fake news: дезинформация в медиа. Н. Муратова, Н. Тошпулатова, Г. Алимова. – Ташкент: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020. –104 с.